

## QO’RBOSHI MUHAMMAD AMINBEK HAYOTIGA CHIZGILAR

**Maqsudbek Akramjonov**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*1-kurs Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) yo’nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola 20-asr boshlarida Turkistondagi istiqlolchilik harakatlarining taniqli vakillaridan biri bo’lgan Madaminbekning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Maqolada Madaminbekning yoshligidan boshlab qo’rboshilikka yetaklovchi yo’li, Rossiya mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashlari, Farg’ona vodiysidagi qo’zg’ololnarga boshchilik qilishi, vaqtı-vaqtı bilan Sovet hukumati bilan olib borgan tinchlik muzokaralari va nihoyat uning o’limi tafsilotlari yoritilgan. Shu bilan birga, Madaminbekning davlat boshqaruvidagi o’ziga xos uslublari, hamkorlar va dushmanlari bilan munosabatlari ham o’rganiladi. Ushbu maqola tarixiy manbalarga tayangan holda, Madaminbekning tarixiy roli va istiqlolchilik ruhining ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so’zlar:** Madaminbek, qo’rboshilik harakati, Farg’ona vodiysi, Sovet hukumati, Turkiston, istiqlolchilik, sulkh.

Shubhasiz, qo’rboshilik harakatining eng mashhur kuch markazlaridan biri Madaminbek va uning atrofida to’plangan qo’rboshi dastalari edi. Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o’g’li 1892-yilda Marg’ilonning So’qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekzodalar xonodonida tug’ilgan. Madaminbek beklik unvonini qo’rboshilik faoliyatini boshlagnidan so‘ng olgan emas. So’qchilik qishlog‘idagi keksalar va Madaminbekning turmush o’rtog‘i Saodat ayaning xotirlashicha, u nasl-nasbi jihatidan ham bek bo’lgan. Ruslar Farg’onani bosib olganlaridan so‘ng, Madaminbek ajdodlari o’z mavqelarini yo’qotadilar.

Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi Farg’ona vodiysida ko’tarilgan turli g’alayon va isyonlarda faol qatnashadi. Shuning uchun o’lkadagi rus politsiyasi uni 1914-yil qamoqqa oladi. Sud Madaminbekning o’zi qilmagan jinoyatlar (qotillik va o’g’rilik)ni ham bo’yniga qo’yib, uni 14-yil muddatga Sibirga katorgaga hukm qiladi. Shunday qilib, yosh Madaminbek hayotining uch-yilini Sibirning sovuq o’rmonlarida o’tkazadi. Bo’lajak qo’rboshi uchun bu-yillar izsiz ketmadi. Aynan Sibirdagi og‘ir va mashaqqatli hayot uni kelgusi kurashlar uchun chiniqtirib, uni yurt ozodligi uchun bo’ladigan hayot-mamot janglariga tayyorlab keldi<sup>29</sup>.

1917-yilning fevral oyidagi inqilob natijasida podshoh hukumati ag’darilgach, Madaminbek Sibirdan o’z ona yurtiga qaytib keldi. U 1918-yilning boshlarida Marg’ilonda militsiya boshlig‘i etib tayinlanadi. 1918-yil 19-fevral kuni Turkiston Muxtoriyati tugatilib, Qo’qon qonga botirilgach, Madaminbek qo’l ostidagi uch yuz yigit bilan “qizil”larga qarshi kurash boshlaydi. U G’orbuva qishlog‘ini o’ziga qarorgoh qilib, Bolsheviklarga qarshi

<sup>29</sup> Khalid, Adeeb, “The Bukharan People’s Soviet Republic in the Light of Muslim Sources” Die Welt des Islams, Volume: 50., Issue: 3/4, 2010, p. 352.

dastlabki janglarini boshlab yubordi. Keyinchalik, Madaminbek G‘orbuvani Shermuhammadbek ixtiyorida qoldirib, o‘zi Baliqchi (Baliqchi vodiyning qoq markazi bo‘lib, ikki ulug‘ daryo Qoradaryo va Norin qo‘shilib, Sirdaryoni hosil qiladigan joy)ga ko‘chadi. Madaminbek vodiyning turli yerlariga odam yuborib, aholini Bolsheviklarga qarshi kurashga da‘vat etadi. Unga Baliqchidan Boytuman hoji, Nayzaqayrag‘ochdan Solih Mahsum, Oq yerdan Qozoqjonbek, Qorako‘ldan Hoshim polvon, Buloqboshidan Mulla Juman, Valikdan Mirkarimboy, Nurulla Mahsum, Abdullajon, Uchqo‘rg‘ondan Nazriddin Mingboshi, Loshmondan To‘xtaboy Ponsod, Qumariqdan Boltaboy Qo‘rboshi, Yozyovondan Yusuf polvon, Qoratepadan Qurbonboy, Varzikdan Abdullajon Mahsum kabi qo‘rboshilar o‘z yigitlari bilan kelib qo‘shiladi. Tez orada, Madaminbekning qo‘shini 4000 kishiga yetadi<sup>30</sup>.

Madaminbek asosan Islom bayrog‘i ostida jang qilgani rus ofitserlarini cho‘chitib turgan. Shu tufayli, Madaminbek ularga diniy erkinlik berishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng, Osipov, general Muxanov, polkovnik Belkin (Kornilov), keyinchalik esa, Sharqiy Farg‘onada tarkib topgan nasroniylar armiyasi qo‘mondoni general Monstrov unga qo‘shiladi. Bu otryad urushlarda chiniqqan, tog‘ sharoitida jang qilishga mohir yigitlardan iborat bo‘lib, “Bo‘ri galasi” degan nom orttirgan edi. Unga shtab-kapitan Plotnikov boshchilik qilgan. Rus ofitserlari Madaminbek qo‘shini shtabini boshqarib, yigitlarga zamonaviy jang usullarini o‘rgatgan.

Madaminbekning dastlabki janglari Marg‘ilon atroflarida, so‘ngra esa Namangan va Baliqchi oralig‘idagi Jiydakapa qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda dastlabki xiyonat sodir etildi. Plotnikov boshchiligidagi Pomir otryadi qizillar bilan yarashish maqsadida ularga xat jo‘natgani ma’lum bo‘lib qoldi. Qo‘rboshi Boytuman Hoji buni sezib qolib, Madaminbekka xabar berdi. Madaminbek yetib kelib, otryadni quolsizlantirdi. Biroq Plotnikovning buyrug‘i bilan qurshovdagi qizil gvardiyachilar Namangan tomon chekinishga muvaffaq bo‘ldi.

Shiddatli janglar asosan 1919-yilda bo‘lib o‘tdi. Madaminbek 1919-yilning boshida eng katta kuch Safonev boshchiligidagi 20 ming askari bo‘lgan Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahriga hujum qildi. Bolsheviklar garnizon qal‘asiga berkinib oldi. Jang vaqtida Farg‘ona qo‘shinlar qo‘mondoni Safonev asir olindi. Skobelev jangi sovet qo‘shini, uning boshliqlari uchun katta saboq bo‘ldi. Ular, o‘z qarshilarida betartib, tarqoq to‘dani emas, balki yaxshi uyushgan, salohiyatlari armiya turganligini his etdilar.

1919-yilning 22 oktyabrida Pomirning Irkeshtom (Ergashtom) ovulida Madaminbek rahbarligida Farg‘ona Muvaqqat hukumati tuzildi. Madaminbek qo‘rboshi hukumat raisi va bosh qo‘mondon qilib tayinlandi. Hukumat boshlig‘ining o‘ribbosarligiga Monstrov nomzodi ko‘rsatildi. General Muxanov harbiy vazir, advokat Nyunsberg Ichki ishlar vaziri, Hakimjon Azizzxonov Moliya vaziri bo‘ldi. Madaminbek Farg‘ona vodiysida Sovet hukumati organlariga muqobil bo‘lgan siyosiy boshqaruvi tizimini joriy etdi. Uning ashaddiy dushmani bo‘lgan Gromatovich Madaminbek tuzgan hukumat haqida shunday yozadi: “U bizning kamchilik va xatolarimizdan mohirona foydalandi. O‘z qo‘shiniga yagona, uyishgan harbiy qo‘shilma tusini bera oldi. Uning askarlari orasida kuchli harbiy intizom o‘rnata oldi”<sup>31</sup>.

Madaminbek harbiy va moddiy yordam so‘rab Buxoro amirligi va Afg‘oniston

<sup>30</sup> Baymirza Hayit, “Türkistan’daki Basmacılar (Millî Mücadele) Tarihinin Ana Hatları”, Eski Sovyetlerdeki Türkçülük ve İslâmın Meseleleri, İstanbul 2000, s. 154.

<sup>31</sup> Ahmet Ardel, “Türk Ülkelerinin Tabii Coğrafyası”, Türk Dünyası Elkitabı (Coğrafya-Tarih), Cilt: 1, 2. Basım, Ankara 1992, s. 281.

hukumatiga o‘z vakillarini yubordi. Ammo, hech qanday yordam ololmadi. 1920-yilning fevralida sovet qo‘sishlari Madaminbek, Shermuhammadbek qo‘shiniga qarshi o‘nlab samolyot, bronepoyezd, katta miqdordagi to‘p pulemyotlar bilan hujumga o‘tdi. Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganligini payqagan Madaminbek o‘z qo‘smini, yigitlarini saqlab qolish maqsadida sulu tuzishga majbur bo‘ladi<sup>32</sup>.

1920-yil 6 mart kuni Madaminbek va Veryovkin-Raxalskiy o‘rtasida Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi. Tinchlik bitimida quyidagilar qayd etilgan: “Men Muhammad Aminbek o‘z qo‘schinim hamda o‘zlarining batamom roziliklarini shaxsan menga izhor qilgan qo‘rboshi va a’zolarim bilan birgalikda tantanali qasamyod qilamanki, endilikda Sovet hokimiyatini tan olaman.

*Men tomonimdan tuzilayotgan bitimning muhim shartlari quyidagilar hisoblanadi: qo‘schinim o‘zim bilan birga bo‘lishi hamda meningsiz hech qayoqqa jo‘natilmasligi kerak. Mobodo Farg‘ona sarhadlariga hujum boshlansa, shu zahoti o‘zimning yigitlarim bilan ona yerimni dushmanlardan muhofaza qilishga kirishaman”*<sup>33</sup>.

Qo‘rboshi taslim bo‘lgan bo‘lsa-da Bolsheviklar undan hayiqishgan. “Qizillar” 1920-yil 9 aprel kuni Madaminbekning hayotiga suiqasd uyushtirib, uni jismonan yo‘q qilishdi. Qo‘rboshining taqdiri masalasida tarixiy manbalarda bir-biriga qarama-qarshi ma’lumotlar beriladi. Jumladan, Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda Madaminbekni “sotqin” sifatida Shermuhammadbekning buyrug‘i bilan Xolxo‘ja tomonidan otib tashlangani ta’kidlanadi.

Ingliz tarixchisi Glenda Frezer o‘zining “Bosmachilar” asarida shunday yozadi: “Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasi uchun jo‘natildi. Shermuhammadbek Madaminni ayg‘oqchi sifatida 14 may kuni otib tashlaydi”.

Ammo, bu fikrlar hech qanday dalil-asosga suyanmaydi. Turk tarixchisi Ali Bodomchining ikki jildlik “Qo‘rboshilar” asarida yozishicha Madaminbekni Xolxo‘ja o‘ldirmagan. Turk tarixchisi qo‘rboshini Shermuhammadbek o‘ldirgan, degan fikrni ham rad etadi. U Madaminbekni o‘ldirilishini Sovetlar uyuştiriganini asosli dalillar bilan isbotlaydi. Bu ishni ruslarga sotilgan Soyib qori va Lutfullo maxdum amalga oshirgan. Ali Bodomchining ta’kidlashicha ular Madaminbekni o‘ldirib, so‘ng Buxoroga qochib ketishgan.

Shermuhammadbek o‘z xotiralarida Madaminbekning o‘ldirilishi haqida yozib qoldirgan: “Muhammad Aminbekning o‘lganini, – deb eslaydi Shermuhammadbek, – men kech eshitdim. Karboboga qaytkanimizdagina bu haqda xabar yopdik. Jang paytida unga hech ko‘zim tushmadi. Chunki, biz hayot-mamot jangiga kirgan edik. Xolxo‘ja Muhammad Aminbekni asir olgan paytda uni askarlaridan Soyib qori va Lutfullo maxdumga topshirgan edi. Ular qo‘rboshini o‘ldirib Buxoroga qochdilar. Muhammad Aminbekni men yoki Xolxo‘ja tomonidan o‘ldirilgan degan fikr ruslar tomonidan bizga qarshi qilingan tashviqot edi”.

Xulosa qilib aytadgigan bo‘lsak, buyuk istiqlolchilik harakatining vakili bo‘lgan Muhammad Aminbek o‘zining qisqa hayot yo‘li davomida keying avlodlarga o’rnak bo‘lishga arziydigan umr kechira oldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

<sup>32</sup> Ahmet Ardel, “Türk Ülkelerinin Tabii Coğrafyası”, Türk Dünyası Elkitabı (Coğrafya-Tarih), Cilt: 1, 2. Basım, Ankara 1992, s. 320.

<sup>33</sup> Ali Bademci, 1917-1934 Türkistan Millî İstiklal Hareketleri ve Enver Paşa, Cilt: I., İstanbul 1975, s. 94.

1. Ali Bademci, 1917-1934 Türkistan Millî İstiklal Hareketleri ve Enver Paşa, Cilt: I., İstanbul 1975.
2. Abdullah Demir, Tarihten Günümüze Rus Yayılmacılığı ve Yeni Kurulan Cumhuriyetler, İstanbul 1998.
3. Ahmet Ardel, “Türk Ülkelerinin Tabii Coğrafyası”, Türk Dünyası Elkitabı (Coğrafya-Tarih), Cilt: 1., 2. Basım, Ankara 1992.
4. Khalid, Adeeb, “The Bukharan People's Soviet Republic in the Light of Muslim Sources” Die Welt des Islams, Volume: 50., Issue: 3/4, 2010.
5. Baymirza Hayit, Ruslara Karşı Basmacılar Hareketi Türkistan Türklüğü'nün Milli Mücadelesi, İstanbul 2006.
6. Canay, “Basmacılık Hakkında”, Yaş Türkistan'dan Seçilmiş Makaleler, Ayaz Tahir Türkistan- İdil Ural Vakfı, İstanbul 2006.
7. İbrahim Yarkın, “Türkistan'da Uyanış-Millî Hareketler ve Münevver Karî”, Türk Kültürü, Sayı: 46., Ankara 1966.
8. Mustafa Chokaev, “The Basmaji Movement in Turkestan”, Asiatic Review, No: XXIV, P. 288.